



Mahalla raislarining haqqi undirildi

3-betda o'qing ↗



Kambag'al oilalar uchun yetti imkoniyat va mas'uliyat

7-betda o'qing ↗

INSON va qonun

2024-YIL
12-NOYABR
SESHANBA
№ 45
(1457)

www.hudud24.uz

www.adolatmarkazi.uz

telegram.me/hudud24official/

facebook.com/hudud24official/

@huquqiyaxborot



Huquqiy axborot telegram kanaliga obuna bo'ling!

Huquqiy axborot telegram kanalida kuzating!



ADLIYA XABARI

MARKAZIY OSIYODA FUQAROSIZLIKKA BARHAM BERILADI

ASHXOBODDA bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyoda fuqarosizlikka barham berish" mavzusidagi vazirlar konferensiyasida O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri Akbar Toshqulov ishtirok etdi.



"Tug'ilishni umumiyoq ro'yxatga olish: eng yaxshi mintaqaviy amaliyotlar" sessiyasida so'zga chiqqan vazir O'zbekiston uchun ham, butun Markaziy Osyo mintaqasi uchun ham fuqarosizlikka barham berish tashabbusining muhimligini ta'kidladi.

A. Toshqulov mamlakatimiz rahbariyati har bir insonning, shu jumladan fuqaroligi yo'qligi tufayli zaif ahvolda bo'lganlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha faol ish olib borayotganini alohida ta'kidladi. Adliya vaziri aytib o'tganidek, aholisi 37 million kishidan oshgan respublikada fuqarolarni hisobga olish va identifikasiya qilish muhim va murakkab vazifa bo'lib, buni amalga oshirish uchun zamonaviy raqamli texnologiyalar joriy etilmoqda.

Jumladan, "FHDYning yagona elektron arxivi" tizimi doirasida 60 milliondan ortiq fuqarolik holati dalolatnomalari raqamlashtirilgani, fuqarolik hujjatlarini hisobga olish tizimiga integratsiyalashgan holda chaqaloqlar uchun shaxsiy identifikasiya raqami joriy etilgani, tibbiyot muassasalari orqali tug'ilishni qayd etish tizimi ishga tushirilgani, chaqaloqlar va ularning ota-onalari uchun davlat xizmatlari majmuaviy tarzda ko'ssatilayotgani ta'kidlandi.

Akbar Toshqulov shu yilning yanvar-mart oylarida Adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilgan "Hech bir shaxs hujjatsiz qolmaydi" huquqiy aksiyasi natijalariga ham to'xtalib o'tdi. Aksiya doirasida respublika bo'ylab ro'yxatga olinmagan tug'ilish va vafot etish holatlari bo'yicha hisobga olish ishlari olib borildi. Natijada 116 mingdan ortiq kishining hujjatlar bilan bog'liq masalalari hal etildi. Xususan, tug'ilganlik qaydnomasiga ega bo'lмаган 1 ming 639 nafar fuqaroga tug'ilganlik to'g'risida guvohnoma, yo'qolgan hujjatlar o'rнига 15 ming 817 nafar fuqaroga tug'ilganlik va vafot etganlik to'g'risida takroriy guvohnoma, 11 ming 357 nafar fuqaroga ID-karta berildi.

Adliya vaziri fuqaroligi bo'lмаган shaxslarni qo'llab-quvvatlash, jumladan, O'zbekiston hududida 15 yildan ortiq yashaganlarga ish bilan ta'minlash va fuqarolik berish haqida ham ma'lumot berdi.

Akbar Toshqulov ma'reza yakunida fuqarosizlikni bartaraf etish uchun xalqaro hamkorlik zarurligini ta'kidlab, O'zbekiston inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro tashabbuslarni faol qo'llab-quvvatlashga va ularda ishtirok etishga tayyor ekanligini bildirdi.

Adliya vaziri BMTning Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissari yordamchisi Ruvendrini Menikdivela xonim bilan uchrashdi

ADLIYA vaziri Akbar Toshqulov 8-noyabr kuni Turkmanistonning Ashxobod shahrida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyoda fuqarosizlikka barham berish" mavzusidagi konferensiya doirasida BMTning Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissari yordamchisi Ruvendrini Menikdivela xonim bilan uchrashdi.

Uchrashuvda BMTning Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi bilan ikki tomonlarma hamkorlik masalalarini rivojlantirish va istiqboldagi rejalar bo'yicha qisqacha suhabat o'tkazildi.

Tomonlar tug'ilganligi qayd etilmagan hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarga ega bo'lмаган fuqarolariga zarur hujjatlarni rasmiylashtirish, shuningdek, fuqarosizlikni qisqarti-

rish bo'yicha hamkorlikdagi amaliy chora-tadbirlarni yo'nga qo'yish bo'yicha fikr almashdilar.

Uchrashuv so'ngida Adliya vazirligi bilan BMTning Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi o'rtasida kelgusidagi hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlashga kelishib olindi.

Adliya vazirligi axborot xizmati



2 JARAYON

BIR martalik umum davlat aksiyasi doirasida 621 ming nafardan ortiq fuqarolarning o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalariga kadastr hujjalari rasmiyashirib berilgan edi. Biroq bu imkoniyatdan hamma ham foydalana olmadi. Aholiga yana bir imkoniyat berildi. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-avgustda e'lon qilingan "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi qonuni joriy yil 8-noyabrdan kuchga kirdi. Ushbu qonun 2028-yil 1-yanvarga qadar amal qiladi.

O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer maydonlarida qurilgan qurilmalarga huquqlarni e'tirof etish jarayonida yigirmaga yaqin davlat idoralari orasida o'zaro elektron hujjalaylanishi hamda jarayonning shaffofigini ta'minlash maqsadida Kadastr agentligi tomonidan "E'tirof" AAT dasturi ishlab chiqildi.

Kadastr agentligining markaziy apparati binosida mazkur onlayn platformaning taqdimoti bo'lib o'tdi. Taqdimotda Kadastr agentligi, "Geoinfokom" davlat muassasasi hamda Davlat kadastrlari palatasi mas'ullari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etishdi.

Ta'kidlanganidek, "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi qonunning mazmun-mohiyatini va uning ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni aholiga, fuqarolarga, tadbirkorlarga tushunarli qilib yetkazib berishda, to'g'ri yoritishda, OAV bilan hamkorlikning o'rni katta.

- Yer qonunchiliga kiritilgan o'zgarishlarga ko'ra, ayni paytda davlat mulki huquqi, doimiy foydalanish huquqi hamda ijara huquqi mavjud, - dedi qonunning mazmun-mohiyati va Kadastr agentligiga qonun bilan yuklatilgan vazifalar haqida gapirar ekan Kadastr agentligi direktori o'rinnbosari Mirsaid

"ETIROF" mult huquqiga bo'lgan e'tirofdir

Mirmaqsudov. - Bu huquqlarning amalda qo'llanilishida, xususan, yerlearning xususiy lashtirilishi reformasini amalga oshirishda qonun talablariga rioya qilinmoqda. Yerlarni ajratib berish faqatgina auksion orqali amalga oshirilmoqda. "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi qonun kuchga kirishi munosabati bilan yangi onlayn platforma ishlab chiqildi. Qonunga muvofiq respublikamizning barcha hududlarida mahalla kesimida bosqichma-bosqich o'tkaziladigan xatlovlardan reja-grafigi ham e'lon qilinmoqda.

- "ETIROF" AAT ishlab chiqilishi va tizim yaratilishida jami 45 nafar dan ortiq xodimlar ishtirok etgan, - dedi "Geoinfokom" davlat muassassi direktori o'rinnbosari Sardor Omonov. - Shundan 30 nafari kadastr agentligi mas'ullari bo'lsa, 15 nafar tegishli vazirlik va idora xodimlari integratsiya qilish jarayonida jalb qilindi. Qonunning 14-moddasiga asosan vakolatlari tashkilotlardan tegishli ma'lumotlarni va hujjalarni o'zlarining axborot tizimlaridan "ETIROF" AATga integratsiya qilgan holda elektron ravishda taqdim etilishi yo'lga qo'yildi. Mulk huquqini e'tirof etishda davlat nazoratini amalga oshirishda Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlardan foydalilanadi. Soddaroq qilib aytganda, aholi tomonidan o'zboshimchalik bilan 2018-yilning 1-yanvarigacha qurilgan bino va inshootlar xatlovdan o'tkaziladi, bunda noqonuniy holatlar bo'lmashigi uchun ham ushbu ma'lumotlar asos bo'ladi.

- "ETIROF" AAT barcha uchun ochiq platforma, - dedi Kadastr agentligining Kadastr va ko'chmasi mulkka bo'lgan huquqlarni davlat



ro'yxatidan o'tkazishni muvofiq lashtirish boshqarmasi boshlig'i Jahongir Yuldashev. - Ushbu tizimga kiritilgan ma'lumotlarni etirof. kadastr.uz saytidan ro'yxatdan o'tgan holda kuzatish imkoniyati mavjud. "ETIROF" barcha uchun ochiq platforma ekanini inobatga olib, aholi tomonidan tasdiqlangan reja-grafik bo'yicha xatlovdan o'tkazilgan mahallalarini ko'rish, shaxsiy kabinet orqali kirib, fikr bildirish imkoniyati ham mavjud. Bu esa ochiqlikni va jamoatchilik nazoratini ta'minlaydi. Yangi onlayn platforma to'liq xavfsizlik qoidalariga javob beradi. Mazkur axborot tizimini hozirda Kiberxavfsizlik markazidan ro'yxatdan o'tkazish ishlari amalga oshirilmoqda.

Taqdimotning ikkinchi qismida ishtirokchilar qonunga asosan bosqichma-bosqich xatlovdan o'tkazish bo'yicha tasdiqlangan mahallalar reja-grafigi bilan ham tanishtirildi. Shundan so'ng mas'ullar tomonidan OAV xodimlarining savollariga javob berildi.

QULAYLIGI NIMADA?

Platformaning bunday nomlanishi sabab - o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish masalasidan kelib chiqqan bo'lib, mazkur e'tirof ko'pchilik anchadan beri kutgan mulk huquqiga bo'lgan e'tirofdir.

Platformaga kirdi, dastlab hudud tanlanadi. Har bitta hudud bo'yicha 2024-2025-yillar rejasiga tasdiqlangan bo'lib, belgilangan sanada ma'lum bir mahalladagi turar joy binolari xatlovdan o'tkaziladi. Masalan, poytaxtimizdagagi ayrim mahallalarda ko'p qavatlari uylar joylashgan. Shuning uchun ham ayrim hududlarda bir kunda bir nechta mahallada xatlov o'tkazilishi, viloyatlarda esa xatlov o'tkazish muddatlari obyektlar soni

va joylashuviga qarab turlicha belgilangan bo'lishi mumkin. Xatlov sanasi va muddati mahallada joylashgan obyektlar soniga bog'liq. Ya'ni, qanchalik turar joy soni ko'p bo'lsa, o'sha mahalla uzoq xatlov jarayonidan o'tadi. Respublika doirasida mazkur ro'yxatda mavjud bo'lmagan hududlar bo'yicha 2025-yil yakunida yangi reja tasdiqlanib, e'lon qilinadi. 900 dan ziyod mahalla 2024-yilda, salkam 3 mingta mahalla esa 2025-yilda xatlovdan o'tkaziladi.

Bu jarayonda alohida e'tibor qaratish kerak bo'lgan bir jihat bor. Ya'ni, uchta turdag'i obyektlar xatlovdan o'tkazilmaydi. Birinchi navbatda, ko'p qavatlari uylardagi turar joylar, ikkinchi navbatda bo'sh yer uchastkalar, shuningdek, davlat tashkiloti va muassasalariga tegishli bo'lgan obyektlar ham xatlovdan o'tkazilmaydi.

QAYERGA MUROJAAT QILISH KERAK?

Qonunning asosiy jihatlaridan biri shundaki, fuqarolar o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish uchun hech qayerga murojaat etishlari shart emas. Qonunga muvofiq, vakolatli tashkilotlardan tuzilgan ishchi guruuhlar tomonidan tasdiqlangan reja-grafik asosida har bir hududda xatlov ishlari amalga oshirilishi belgilangan.

Viloyat hokimlarining taklifiga asosan 2025-yilga mo'ljallangan reja-grafik Kadastr agentligi direktori tomonidan tasdiqlandi. Mazkur jadval Kadastr agentligining kadastr.uz saytiga joylashtirildi. Aholiga qulaylik yaratish maqsadida saytga kirish bilan dastlabki oynada jadval bilan tanishish taklif etiladi. Unga bosish orqali saytning kerakli bo'limiga o'tiladi.



Elektron manzil:
<https://kadastr.uz/uz/etirof-etish-reja-jadvali>

Gulbahor ORTIQXO'JAYEVA,
"Inson va qonun" muxbirini

Otaliqqa olingan yoshlar adliya e'tiborida



ADLIYA organlari tomonidan otaliqqa olingan yoshlarning ijtimoiy, huquqiy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar o'z samarasini berayapti.

- Birgina Samarcand viloyat adliya boshqarmasi va viloyatdagi adliya organlari tomonidan otaliqqa olingan 30 ming nafardan ortiq yoshlarning muammolari xatlovdan o'tkazilib, ayni paytda ularga ijtimoiy, huquqiy ko'mak ko'rsatilishi davom etmoqda, - deydi boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinnbosari Ozodjon Shodiqulov. - Xususan, payariqlik yosh oila vakillari Shahzod Boliev va Dildora Mamadiyorova ham otaliqqa olingan ana shunday yoshlardan. Ular moddiy qiyinchiliklar sabab migratsiyada bo'lib qaytgani. Adliya xodimlari ularning xonardoniga borib, shart-sharoiti, muammolarini o'rganganda, Dildora tikuvchilikka qiziqishi, turmush o'rtog'i Shahzod esa moto skuter olishda ko'maklashilsa, o'zini o'zi band qilgan holda oila budgetiga hissa qo'shamoqchi ekanini ma'lum qilgandi.

Joriy yilning may oyida ularga amaliy ko'mak ko'rsatilib, oilaning moddiy ahvolini yaxshilashga sharoit yaratilgandi. Bugungi kunda bira tikuvchilik, ikkinchisi esa yuk tashish xizmatini yo'lga qo'yib, oilaning kunlik daromadi 200-300 ming so'mni tashkil etmoqda.

Olib borilgan xatlovlardan natijasida otaliqqa olingan yoshlarning 9 ming 967 ta muammoi o'rganildi. Hozirgacha ularning 4 mingdan ziyodi hal etilib, otaliqqa olingan yoshlarga 189 million so'mdan ortiq amaliy yordam ko'rsatildi.

Manzilli ravishda o'tkazilayotgan huquqiy o'rganishlar odamlarga yopiq bo'lgan ko'plab imkoniyatlar eshiklarini ochib bermoqda. Payari tuman adliya bo'limining "Juvozxona" mahallasidagi huquqiy o'rganishlarida fuqaro Mohira Abdiyeva kenja farzandi maktabga qabul qilinmayotganini ma'lum qilgan. O'rganishlarda fuqaro uzoq yillar muqaddam pasportini yo'qtogani, moliyaviy muammolar bois bolaga tug'ilganlik guvohnomasini ololmagani aniqlandi. Adliya bo'limi homiylarni jalb qilgan holda ichki ishlari bo'limi bilan hamkorlikda fuqaroga pasport olishda ko'maklashdi va shundan so'ng bolaga tuman 1-son FHDY bo'limi tomonidan guvohnoma rasmiyashirildi. Farzandi esa bugun tengqurlari bilan maktabda ta'lif olmoqda.

Mansur HASANOV,
Samarqand viloyat adliya boshqarmasi axborot xizmati rahbari

ADLIYA ODAMLAR ORASIDA 3

Mahalla raislarining haqqi undirildi



BUGUNGI kunda ko'pchilikning ishsizlik, kredit yoki subsidiya olish, yoshlar bandligi, mehnat va oilaviy munosabatlardagi kelishmovchiliklar kabi muammolari "Mahalla yettiligi" yordamida ortiqcha ovoragarchiliklarsiz hal bo'lmoqda. Mahallaga borib, onlayn mahalla platformasiga bitta ariza tashlansa, bo'ldi. Bu esa ish bitdi degani.

KUTUBXONACHIGA USTAMA PULI TO'LAMAGAN

YANGIYER shahar adliya bo'limi tomonidan fuqaro Boburjon Ismatulloevning murojaati o'rnatildi.

Bayon qilinishicha, B. Ismatulloev 2023-yil 16-martdan Yangiyer shahar Axborot-kutubxona markazi direktorining tegishli buyrug'i bilan AKT xodimi lavozimiga ishga qabul qilin-gan. Biroq, unga to'lanishi lozim bo'lgan ustama puli to'lab berilmagan.

Vaholanki, Prezidentning "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'-risida"gi farmoniga asosan davlat organlari va boshqa budget tashkilotlarining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish va rivojlantirishga mas'ul bo'lgan xodimlariga beriladigan har oylik ustama miqdori davlat budgetidan, davlat budgetidan ajratilmagan bo'lsa, ushbu tashkilotning budgetdan tashqari maqlag'lari hisobidan xodimning lavozim maoshidan 100 foizdan kam bo'lmagan miqdorda to'lanishi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, Prezidentimizning 2023-yil 24-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'-risida"gi farmonining 6-bandiga muvofiq 2023-yil

Ammo, mahallaning o'zi yordamga muhtoj bo'lsachi? Masalan, mahalla xodimlarining mehnatga haq to'lashdagi huquqini tiklay olmayotganini qanday tushunsa bo'ladi? Bu "etikka yolchimayotgan etikdo'z" holatini anglatmaydimi? Afsuski, shunday.


Navoiy shahridagi "O'zbekiston" va "Yangiariq" mahalla fuqarolar yig'inlari raislari D. Qurbanova va A. Mavlonovlar to'lanmagan mehnat ta'tili mablag'lari ni undirishda amaliy yordam so'rab, shahar adliya bo'limiga murojaat qilishga majbur bo'ldi.

Muammo o'rganilib, fuqarolik ishlari bo'yicha Karmana tumanlararo sudiga mahalla raislari Dilnoza Qurbanova hamda Abusaid Mavlonov manfaatida da'vo arizasi kiritildi. Sud tomonidan adliya bo'limining javobgar - O'zbekiston mahallalar uyushmasi Navoiy shahar bo'limiga nisbatan mehnat ta'tilini undirish to'g'risidagi da'vo arizasi qanoatlantirildi. "O'zbekiston" mahalla fuqarolar yig'in raisi D. Qurbanovaga yillik mehnat ta'tili uchun to'lanmasdan qolgan 5 million 925 ming 718 so'm, "Yangiariq" mahalla fuqarolar yig'in raisi A. Mavlonov foydasiga esa 5 million 808 ming 600 so'm miqdoridagi pul mablag'i undiriladigan bo'ldi.

Nega O'zbekiston mahallalar uyushmasi Navoiy shahar bo'limi o'z xodimlarining yillik mehnat ta'tili uchun to'lovlarini berishda bunday xatolikka yo'l qo'ydi, degan haqli savol tug'iladi.

Murojaatlarni o'rganish davomida ma'lum bo'lishicha, Navoiy shahar Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi tugatilib, O'zbekiston mahallalar uyushmasi Navoiy shahar bo'limi tashkil etilgan. Yangi tashkilotda mahalla raislariga yillik mehnat ta'tiliga chiqqan davri uchun ish haqi to'lovlarini to'lab berishni mablag'lar smetasiga kiritmagani bois, mehnat ta'tili pullari to'lovlarini amalga oshirishning imkonini bo'lmagan.

**Shirinbek OCHILOV,
Navoiy shahar adliya bo'limi bosh maslahatchisi**



1-avgustdan boshlab axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xalqaro sertifikatga ega bo'lgan davlat organlari va boshqa budget tashkilotlarining axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish uchun mas'ul xodimlariga o'rnatilgan ustamalarga qo'shimcha ravishda tashkilotlarning budgetdan tashqari va ish haqi fondi doirasidagi budget mablag'lari hisobidan lavozim maoshiga nisbatan 20 foiz miqdorda ustama to'lanishi qayd etilgan.

O'rganish davomida B. Ismatulloev 2024-yil 9-aprelda attestatsiyadan o'tib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida xalqaro sertifikat olgan bo'lsa-da, Yangiyer shahar axborot-kutubxona markazi tomonidan yuqoridagi qaror va farmon talablari bajarilmay, xodimiga ustama to'lovlarini to'lab berilmaganini ma'lum bo'ldi.

Adliya bo'limi tomonidan fuqaro B. Ismatulloevning manfaatida fuqarolik ishlari bo'yicha Guliston tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sudning hal qiluv qarori bilan shahar AKM hisobidan fuqaro B. Ismatulloevning foydasiga 13 million 818 ming 125 so'm miqdorida ish haqi va ustama pullari undirilishi belgilandi.

**Hayitboy SAYITOVA,
Yangiyer shahar adliya bo'limi boshlig'i**

HUQUQIY DAYJEST

Javobgarlik chorralari belgilandi



JORIY yilning 4-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasining "Sport sohasida korrupsiyaning oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

Unga muvofiq, Jinoyat kodeksi "Sport musobaqlari ishtiroychilarini va tashkilotchilarining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi" deb nomlangan 214¹-modda hamda "Sport musobaqlari ishtiroychilarini va tashkilotchilarini pora evaziga og'dirib olish" deb nomlangan 214²-modda bilan to'ldirilib, ayni yo'nalishdagi jinoyatlar uchun tegishli javobgarlik chorralari belgilandi.

Xalq tabobati xizmati tartibga solinadi



Prezidentimiz tomonidan shu yilning 5-noyabr kuni imzolangan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun asosida hamyurtlarimizga xalq tabobati xizmatini ko'ratisfishga oid talab kuchaytirildi.

Qonunga muvofiq, Ma'muriy javobgarlik to'g'-risidagi kodeks, "Xalq tabobati to'g'risidagi qo'nunchilikni buzish" deb nomlangan 59⁵-modda bilan to'ldirildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 7-iyunda qabul qilingan "Reklama to'g'risida"gi qonuni 45-moddasi "Xalq tabobati yo'nalishida ruxsat etilmagan usullarni qo'llagan holda fuqarolarga tibbiy tashxis qo'yish va ularni davolash xizmatlarini reklama qilish taqiqlanadi" degan so'zlardan iborat uchinchi qism bilan to'ldirildi.

Psixologik yordam ko'rsatish tashkil etiladi



Joriy yilning 5-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasining "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

Mazkur qonunga binoan, psixologik yordam davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda ishlovchi psixologlar yoxud ushbu sohada xususiy tartibda faoliyat olib boruvchi yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagisi tadbirkorlar tomonidan bepul yoki pullik asosda ko'rsatiladi.

Maktabgacha, umumiyo'rta, o'rta maxsus va professional ta'lif tashkilotlarida ta'lif oluv-chilarining psixologik salomatligini saqlash, sog'gom psixologik muhit yaratish va ularning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashish maqsadida psixologik yordam ko'rsatish tashkil etiladi.

4 HUDUDLARDA

JORIY yil 4-noyabr kuni Xadicha Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi Farg'ona viloyat bo'limida Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriyasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda Farg'ona viloyat hokimi X. Bozorov, adliya vaziri o'rinnbosari Sh. Rabiyev, adliya, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, viloyat davlat hokimiyati boshqaruvchi organlari, soha faxriylari, ommaviy axborot vositalari xodimlari va boshqa tashkilot vakillari ishtirok etdi.

Tadbir ishtirokchilariga Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyati, unda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini, yangi joriy etilgan ekspertiza turlari, takomillashtirilgan zamonaviy moddiy texnik baza hamda Markazning Farg'ona viloyat bo'limida yangi tashkil etilgan Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriysi haqida batatsil ma'lumot berildi.

Xalqaro sndlarda ishonchli himoya qilish imkonii bor


Akram XALILOV,
Respublika sud ekspertizasi
markazi direktori:

- Prezidentimizning 2019-yil 17-yanvardagi "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan yurtimizda ilk bor nodavlat tashkilotlar tomonidan sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari yartildi.

Mazkur sohani yanada rivojlantirishga qaratilgan 2021-yil 5-iyuldaggi Prezident farmoni qabul qilinishi sud ekspertiza faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi.

Farmon bilan "O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021-2025-yil-larga mo'ljallangan konsepsiysi" tasdiqlandi. Respublika sud ekspertiza markazining Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyati tashkil etildi. Markaz huzurida yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalarini beruvchi ilmiy kengash tuzildi, mustaqil izlanuvchilar va

Dalillarni DNK – tahlil metodi bilan olish jahon amaliyotida sinovdan o'tgan



tegishli kvota ajratilgan Tayanch doktorantura instituti ham joriy etildi.

Shu bilan birga, davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan shartnoma asosida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq o'tkazilishi mumkin bo'lgan 51 turdagi sud ekspertizasi tadqiqotlari ro'yxati tasdiqlandi.

Markazda amalga oshiriladigan sud ekspertlik turlari 44 tadan 58 taga oshgan bo'lsa, mutaxassislik yo'nalishlari 93 taga yetdi. Sud ekspertiza yo'nalishiga ixtisoslashgan "O'zbekiston sud-ekspertizasi" nomli ilmiy jurnalni bosma va elektron shaklda nashr etish yo'lga qo'yildi.

Markaz laboratoriyalari ISO/IEC 17025 xalqaro standartiga muvofiq akkreditatsiya qilinib, muvofiqlik sertifikatiga ega bo'ldi. Mazkur akkreditatsiya Markazga tadqiqotlarni xalqaro standartlar darajasida bajarish imkonini beradi hamda mazkur laboratoriylar tomonidan berilgan xulosalarning xalqaro miqyosda shubhasiz tan olinishi, fuqarolarimizning huquq va manfaatlarini nafaqat mamlakatimiz hududida, balki xalqaro sndlarda ham ishonchli himoya qilinishiga hamda odil sudlov ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Sud-ekspertlik faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, Markazimiz Sud-ekspertiza muassasalarining Osiyo tarmog'i (Asian Forensic Sciences Network - AFSN) hamda

Sud ekspertizasi Xalqaro Assotsiyatisyasing (International Association of Forensic Sciences - IAFS) to'laqonli a'zoligiga qabul qilindi.

Yangi laboratoriya – yangi imkoniyatlar

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 5-iyuldaggi "O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida fuqarolarga qulayliklar yaratish maqsadida Farg'ona, Termiz, Urganch shaharlarida Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi hamda Samarqand shahrida Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi va Materiallar, ash-yolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriylarini bosqichma-bosqich tashkil qilish belgilangan edi.

Mazkur farmon hamda hukumatning tegishli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 2022-yil 8-iyulda Respublika sud ekspertizasi markazining Samarqand viloyat hududiy bo'limida hamda 2023-yil 29-dekabrda Xorazm viloyat hududiy bo'limida Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi laboratoriylari tashkil etildi.

Markazning Farg'ona viloyat hududiy bo'limida ham Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi laboratoriysi faoliyati yo'lga qo'yilgani sohadagi yana bir imkoniyat.

Mazkur bo'limda o'tkaziladigan ekspertiza turlari 17 tadan 24 taga, tadqiqot turlari esa 19 tadan 38 taga oshirilib, Odam DNKsi sud-biologik, Sud-lingistik, Sud-

filologik, Sud-yong'in texnik, Sud-elektrotexnikaviy, Lok-bo'yoy materiallari va qoplamarining, Neft mahsulotlari va yoqilg'i-moylash materiallari kabi yangi ekspertiza turlari joriy etilmoqda.

O'rta Osiyoda birinchi

Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi laboratoriysi Markaz tarhibida 2000-yilda Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib o'z faoliyatini boshlagan bo'lsa, hozirgi kunda ham mamlakatimizda ushbu turdagidagi tadqiqotlarni o'tkazadigan yagona laboratoriya hisoblanadi.

Mazkur laboratoriya da sud genetik DNA ekspertizasi tadqiqotlarida noma'lum shaxsni identifikasiya qilish, turli jinoyat ishlari bo'yicha taqdim etilgan ashyoviy daliddagi biomaterialning aynan kimga tegishli ekanini aniqlash, biologik ota-onalik fakti, Y-xromosoma tadqiqotlari orqali ota avlod bo'yicha o'zaro biologik qarindoshlikni aniqlash va biomaterialning jins mansubligini aniqlash kabi vazifalar hal etilmoqda.

Bundan tashqari, adliya vazirining tegishli buyrug'i bilan Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi bo'yicha anonim murojaat qilgan shaxslarning shaxsiga doir ma'lumotlarni maxsus belgilar asosida qayd etish orqali tadqiqotlarni o'tkazish tartibi belgilandi.

Yana bir muhim hujjat – "Genom bo'yicha davlat ro'yxitiga olish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 17-noyabrdagi qonunida Genom bo'yicha ro'yxitga olishning milliy bazasini shakllantirish belgilangan bo'lib, hududlarda mazkur Odam DNKsi sud biologik ekspertiza laboratoriylarining ochilishi ushbu qonunning ijrosini so'zsiz ta'minlash hamda Milliy bazani to'laqonli shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi Xalqaro hamkorlik va jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi

"HUQUQIY ZAKOVAT"

g'oliblari
aniqlandi



Jumladan, Namangan viloyatida o'tkazilgan "Huquqiy zakovat" intellektual o'yini ming nafardan ortiq yoshlarni bir maqsad yo'lida birlashtirdi. Joriy yilning 18 – 24-oktabr kunlari tuman (shahar) bosqichlari o'tkazilib, unda birinchilikni qo'lga kiritgan 14 ta jamoa viloyat bosqichiga yo'llanma olgan edi. Viloyat bosqichida ularning bilimlari yana bir karra sinovdan o'tkazildi.

Murosasiz kechgan bahislarda "Legenda", "Dinamit", "Norin", "Tafakkur" hamda "Tamanno" jamoalari faollik ko'rsatishdi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, savollar qiziqarli, mantiqiy, huquqiy, aniq faktlarga asoslangan holda tuzilib, komissiya tomonidan tanlab olingan. Savollarga javob topish oson kechmadi, albatta. Jamoalar

orasidan eng kuchlilari hakamlar hay'ati tomonidan qo'yilgan adolatli baholar orqali aniqlandi.

Yorqin lahzalarga boy o'tgan bilimlar bellashuvida 1-o'rinni Chust tumanining "Dinamit" jamoasi qo'lg'a kiritdi. Norin tumanining "Norin" jamoasi 2-o'rinni egallagan bo'lsa, to'raqo'rg'onlik yoshlarga 3-o'rin nasib etdi. Shuningdek, "Eng ilg'or jamoa", "Eng namunali jamoa", "Eng bilimli ishtirokchi" nominatsiyasi g'oliblari ham aniqlandi.

Bellashuv g'oliblari viloyat adliya boshqarmasining diplom va esdalik sovg'alarini bilan taqdirlandi.

Jaloliddin RAHIMALIYEV,
Namangan viloyat adliya boshqarmasi
bosh maslahatchisi

ADLIYA vazirligi hamda hududiy boshqarmalar tomonidan yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish yo'lida turli tadbirlar tashkil etish an'anaga aylangan.



Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti talabasi

Behruz XAYRIDDINOV
tayyorladi



TIBBIY KO'RIKDAN O'TISH MAJBURIYMI?

KEYINGI vaqtida "majburiy tibbiy ko'rrik" degan ibora bot-bot qulog'imizga chalinmoqda. Ushbu masalada juda ko'p savollar tug'ilsa-da, ularga berilgan javoblar hamma vaqt ham ishonchli manbalarga tayanmaydi. Shu sababdan ham, biz majburiy tibbiy ko'rrik masalasi-sini qonunchilik doirasida tahlil qilmoqchimiz.

MAJBURIY TIBBIY KO'RIK O'ZI NIMA?

Majburiy tibbiy ko'rriklar xodimlarni ishga qabul qilayotganda va davriy tarzda o'tkaziladigan tekshiruvlardir. Ularni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad – yuqumli va parazitar kasalliklar kelib chiqishi va tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, kasb kasalliklari, zaharlanishlar va baxtsiz hodisalar ning oldini olish hisoblanadi.

KIMLAR O'TISHI SHART?

Mehnat kodeksida ushbu sohaga oid bir nechta normalar belgilangan. Ushbu normativ-huquqiy hujjatning 360-moddasiga ko'ra, ish beruvchi quyidagi toifalarning dastlabki va davriy majburiy tibbiy ko'rrikdan o'tishini ta'minlashi shart:

o'n sakkiz yoshga to'limgan shaxslarni;

umumiyl belgilangan pensiya yo-shiga yetgan shaxslarni (erkaklar uchun 60 yosh, ayollar uchun 55 yosh);

nogironligi bo'lgan shaxslarni; mehnat sharoiti noqulay bo'lgan ishlarda (zararli va xavfli ishlab chiqarish omili mavjud bo'lgan ishlar, kasb kasalligiga olib kelishi mumkin bo'lgan ishlar Mehnat kodeksi 473-modda), tungi ishlarda, shuningdek, transport vositalarining harakati bilan bog'liq ishlarda band bo'lganlarni;

oziq-ovqat sanoatida, savdoda va bevosita aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq ishlarda band bo'lganlarni;

umumiyl o'rtalim tashkilotlarining, maktabgacha ta'lism tashkilotlarining va boshqa tashkilotlarning bevosita bolalarga ta'lism yoki tarbiya berish bilan band bo'lgan pedagog xodimlarini va boshqa xodimlarini;

Majburiy tibbiy ko'rriklarining oziq-ovqat mahsulotlari, insonlarni davolash, bolalarni tarbiyalash va ta'lism berish bilan mashg'ul bo'lgan toifalarga majburiyligi ular xizmat ko'rsatayotgan tashrifchilar salomatligi va xavfsizligi haqida qayg'urish bilan izohlanadi.

QONUNCHILIK TALABI

Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i bilan "Xodimlarni tibbiy ko'rrikdan o'tkazish to'g'risida" ginizom qabul qilingan bo'lib, unda aynan qaysi turdagi mehnat faoliyatini olib borayotgan xodimning qancha vaqtida, qaysi turdagi majburiy tibbiy ko'rriklardan o'tishi kerakligi aks ettirilgan.

Masalan, to'g'ridan-to'g'ri transport vositalarini, jumladan, tashkilot ichida harakatlanadigan transport vositalarini boshqarish bilan bog'liq ishlarda ishlovchilar har ikki yilda bir marta terapevt, otolaringolog, nevropatolog, oftalmolog ko'rigidan o'tishga majbur bo'lsa, oziq-ovqat sanoati tashkilotlarida, sut fermalari va oshxonalarida, oziq-ovqat tarqatish punktlarida, oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash va tashishda ishlovchi xodimlar bir yilda ikki marta terapevt, dermatolog va ginekolog ko'rigidan o'tishga majbur. Bu toifadagi shaxslar oziq-ovqat sanoatida ishlagani sababli ham ular bir marta emas, balki ikki marta majburiy tibbiy ko'rrikdan o'tishi shart.

Mehnat kodeksining 414-moddasiga ko'ra, o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar faqat dastlabki majburiy tibbiy ko'rrikdan o'tganidan keyin ishga qabul qilinadi va keyinchalik ular o'n sakkiz yoshga to'lguniga qadar har yili majburiy tibbiy ko'rrikdan o'tishi lozim.

XODIM BOSH TORTISHGA HAQLIMI?

Yo'q. Xodimlar ushbu jarayondan bosh tortishga haqli emas. Agarda ular majburiy tibbiy ko'rrikdan o'tishdan bosh tortsa, Mehnat kodeksining 151-moddasiga ko'ra, ish beruvchi ular bilan mehnat shartnomasini tuzmaslikka yoki mehnat shartnomasini bekor qilishga haqli. Tibbiy ko'rrikdan o'tish xodimning huquqi emas, aksincha uning burchidir.

Xodimlarning majburiy tibbiy ko'rrik natijalari shaxsga doir ma'lumotlar qatoriga kiradi va uni oshkor qilishga hech kimning haqqi yo'q.

XARAJATLARNI KIM TO'LAYDI?

Mehnat kodeksining 292-moddasiga ko'ra, ish beruvchi xodim majburiy tibbiy ko'rrikdan o'tganligi munosabati bilan yuzaga keladigan xarajatlarni kompensatsiya qilishga majbur. Ya'ni, tibbiy ko'rrik bilan bog'liq barcha xarajatlarni ish beruvchi ta'minlaydi. Qonunchilikka muvofiq, majburiy tibbiy ko'rrikdan o'tkazilishi lozim bo'lgan shaxslar boshqa ishga o'tkazilgan taqdirda ham, ish beruvchi majburiy tibbiy ko'rrikni tashkillashtirish majburiyatidan ozod bo'lmaydi. Mehnat kodeksining 355-moddasiga ko'ra, tibbiy tavsiyalarga muvofiq tibbiy ko'rrikdan o'tish vaqtida o'z ish joyi (lavozimi) va o'rtacha ish haqi saqlanib qolning holda mazkur tibbiy ko'rrikdan navbatdan tashqari

o'tish huquqi xodimlarga beriladi. Agar xodim sog'lig'ining yomonlashishi mehnat sharoitlari bilan bog'liq deb hisoblasa, u navbatdan tashqari majburiy tibbiy ko'rrikdan o'tishni talab qilish huquqiga ega. Xodimlar hech qachon tibbiy ko'rriklardan o'tish munosabati bilan chiqimdar bo'lmaydi. Ulardan pul undirishga harakatlar qonunchilikka muvofiq jinoyat hisoblanadi va javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.


HAR KUNI O'TUVCHILAR HAM BOR

Shunday toifa kasb vakillari borki, ular har ish kuni oldidan kichik tibbiy ko'rrikdan o'tishi shart. Bunday kasb egalariga uchuvchilar va havo ekipajida ishlovchilar, uzoq masofaga yuk mashina haydaydigan tijorat haydovchilar, favqulodda xizmat xodimlari (o't o'chiruvchilar, shifokorlar va militsiya xodimlari) ni misol qilib keltirsa bo'ladi. Chunki ularning sog'lim ekantligi bevosita boshqa shaxslarning hayotiga bog'liq. Qonunchilikka muvofiq, ishga kirishishidan oldin ushbu toifa ishchilarining jismoniy va ruhiy ahvoli tibbiyot xodimlari tomonidan tekshiriladi. Tekshirish davomida u bilan dam olish (uxlash) davomiyligi va sharoitlari to'g'risida suhbat olib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, majburiy tibbiy ko'rriklar xodimlarning manfaatlarini o'ylagan holda, turli kasalilik va ishdagi sog'liq bilan bog'liq bo'lgan baxtsiz hodisalarining oldini olish uchun o'tkaziladi. Majburiy tibbiy ko'rriklar nafaqat xodimning sog'lig'ini, balki jamoat xavfsizligi va manfaatini nazarda tutadi. Shuning uchun hech bir xodim tibbiy ko'rriklardan bo'yin tovlamasligi va ulardan qonuniy tarzda, to'liq o'tishi muhimdir.

ADLIYA YORDAM BERDI

Hokimlikdan salkam 1 MILLIARD SO'M KOMPENSATSIYA undirildi



NURAFSHON shahar, Navoiy ko'chasidagi 11-uya da yashovchi fuqaro Sh. Salmatov shahar adliya bo'limiga murojaat qilib, Toshkent yo'li ko'chasi-da joylashgan noturar oshxona binosi buzilishi natijasida ko'rilgan zararni qoplashda amaliy yordam berishni so'ragan.

Murojaatni o'rganish davomida aniqlanishicha, haqiqatan ham davlat va jamiyat ehtiyojlarini uchun buzilgan Sh. Salmatovga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan oshxona binosi uchun unga yetkazilgan zarar qoplab berilmagan.

Fuqaro Sh. Salmatov ushbu masala yuzasidan shahar hokimligiga ariza bilan mu-rojaat qilgan, unga buzilgan bino-inshootlarning bozor qiymati kompensatsiya sifatida to'lab berilishi yuzasidan sudga murojaat qilishi maqsadga muvofiqligi tushuntirilib, javob xati berilgani ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, Sh. Salmatovga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan oshxona binosi buzilishi munosabati bilan yetkazilgan zararning bozor qiymati, baholash faoliyatini bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan

"Biznes baholash" MCHJ tomonidan tuzilgan 2024-yil 3-maydagi baholash hisobotiga asosan 889 million 785 ming 712 so'mga baholangan hamda ushbu baholash hisoboti "Kontinent imkon baho" MCHJ tomonidan ekspertizadan o'tkazilib, 2024-yil 10-may kuni xulosa berilgan.

O'rganish natijalariga ko'ra, adliya bo'limi tomonidan Sh. Salmatovning manfaatida javobgar shahar hokimligidan 889 million 785 ming 712 so'm kompensatsiya undirib berish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha O'rtachirchiq tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi va sudning hal qiluv qarori qabul qilindi.

Gulboy RAHMONQULOV,
Nurafshon shahar adliya bo'limi boshlig'i

6 SUDYA MINBARI

KONSTITUTSIYAMIZNING asosi bitta ezgu g'oya atrofida tubdan qayta yaratilgan. U ham bo'lsa, "Davlat - jamiyat - inson" degan prinsipning "Inson - jamiyat - davlat" tamoyiliga aylanib, "Inson qadri uchun!" degan g'oya ustuvorlikka ega ekani o'z ifodasini topgan. Ya'ni, fuqaroni birinchi marta davlat organlari tomonidan biron bir ishga gumon qilinuvchi sifatida jalb qilayotganda, unga birlamchi huquqlarini tushuntirib berish sharti sanalgan "Miranda qoidasi" hamda "Xabeas korpus" (lat. habeas corpus) – "tanani sudga keltirish", ya'ni jinoiy ta'qibga uchragan fuqaroning adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqining tarixan eng qadimiy e'tiroflaridan biri hisoblangan normalar yanada keng joriy etildi.

Konstitutsiyada "MIRANDA QOIDASI"



Umuman, yuqorida nomi keltirilgan institutlarning qonunda o'z ifodasini topishi, ularning mazmuniy jihatlari, aynan, Konstitutsiyamizning 27, 28, 29 va 31-moddalarida inson qadr-qimmati va sha'ni, gumonlanuvchi fuqaroni ushslash chog'ida birlamchi huquqlarini tushuntirish, sudlov jarayoniga qadar huquqiy majburiyatlarga qaratilgan normalar aniq keltirilgan, deyish mumkin.

Konstitutsiyada o'z ifodasini topgan "Miranda qoidasi" fuqaroni birinchi marta davlat organlari tomonidan biron bir ishga gumon qilinuvchi sifatida jalb qilayotganda, unga birlamchi huquqlari tushuntirib berilishi demakdir. Xususan, ushslash chog'ida shaxs o'z huquqlari to'grisida xabardor qilinishi lozimligi, uni ushlab turgan huquqi muhofaza qiluvchi organ xodimi shaxsga huquqlari tushunarli bo'lganmi, degan savolga ijobjiy javob olishi lozimligi nazarda tutiladi.

"SIZ SUKUT SAQLASH HUQUQIGA EGASIZ..."

"Miranda qoidasi" o'tgan asrning 60-yillarida AQSHda jinoyat olamida o'ziga xos "nom qozongan" Ernest Arturo Miranda nomi bilan bog'liq.

"Miranda qoidasi" inson huquqlarini himoya qilish yo'lida kurashlar tarixida o'ziga xos iz qoldirgan, inson huquqlariga oid milliy jinoyat-protsessual qonunchiligi hamda umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalarining muhim normalaridan biri hisoblanadi.

"Siz sukut saqlash huquqiga egasiz. Siz aytganlarning hammasi sudda o'zingizga qarshi foydalanishi mumkin". Bu mashhur ibora bir necha marta jinoiy javobgarlikka tortilgan Ernest Arturo Miranda ismli AQSH fuqarosining nomi bilan bog'liq.

Gap shundaki, 1966-yili bir necha jinoyatni sodir etganlikda gumon qilinib, hibsga olingan Mirandaga so'roq qilinishdan oldin uning gumondor sifatidagi huquqlari o'qib eshitirilmagan. Miranda

o'z huquqlarini bilmagan holda aybiga iqrarlik ko'rsatuvlarini bergan, bunday ko'rsatuvlardan esa uning iqrarligiga isbot sifatida foydalanilgan. Keyinchalik sudning bu hukmi Miranda o'z huquqlaridan xabardor qilinmaganligi sababli AQSH Oliy sudi tomonidan bekor qilingan.

Chunki, AQSH Konstitutsiyasining 5 va 6-qo'shimchalarida hech kim jinoiy ishlarda o'ziga o'zi qarshi guvohlik berishga majbur qilinishi, hech bir shaxs qonuniy sudda ko'rilmay hayoti, erkinligi yoki mulkidan mahrum etilishi mumkin emasligi, shuningdek, ayblanuvchi ayblovning mohiyati va asoslaridan xabardor bo'lish huquqiga ega ekanligi, u o'ziga qarshi ko'rsatu berayotgan guvohlar bilan yuzmay yuz uch rashishi, o'zi tomonidan guvohlarni majburan keltirish yoki o'z himoyasi uchun advokat xizmatidan foydalanish huquqiga ega ekanligi belgilangan.

Shundan buyon "Miranda qoidasi" dastlab so'roq qilish oldidan yoki ushlab turish vaqtida gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga quyidagi huquqlari tushuntirilishini kafolatlaydi: "Siz sukut saqlash huquqiga egasiz. Siz aytganlarning hammasi sudda o'zingizga qarshi foydalanishi mumkin. So'roq jarayonida advokatingiz qatnashishi mumkin. Agar advokat xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmasangiz, Siz advokat bilan davlat tomonidan ta'minlanasiz. Huquqlaringizni tushundingizmi?"

Shuni aytish kerakki, "Miranda qoidasi" bugungi kunda barcha davlatlar Konstitutsiyasi va qonunlarida hamda inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda umume'tirof etilgan norma sifatida belgilangan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizdir, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emasligi Asosiy Qonunda o'z ifodasini topgan.

Tolibjon OBIDOV,
jinoyat ishlari bo'yicha
Shayxontohur tuman sudi raisi

2022 – 2026-YILLARGA mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Harakatlar strategiyasining uziy davomidir. Unda bugungi global o'zgarishlar, aholi turmush tarzi, hayot talabi va qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda yettita ustuvor yo'nalihsidagi maqsad va vazifalar belgilangan.

SUDYALAR DAXLSIZLIGI QONUN BILAN KAFOLATLANGAN



Taraqqiyot strategiyasidagi har bir vazifa va maqsad 2021-yilda bo'lib o'tgan Prezident saylovi jarayonlarida bevosita fuqarolarimiz ishtirokida muhokamadan o'tkazilib, hayotiy taklif va tashabbuslar bilan to'dirilgan.

Taraqqiyot strategiyasi 100 ta ustuvor maqsadni o'zida mujassam etgan bo'lsa, shundan sud islohotlari bilan bog'liq bandlar bevosita ikkinchi yo'nalihsidagi doirasida belgilangan. Bu ustuvor yo'nalihsidagi "Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va ziarur shartiga aylantirish" deb nomlangan.

Xususan, Konstitutsiyasining 122-moddasida sudyalar mustaqil ekani, faqat qonunga bo'ysunishi, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmasligi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi kabi muhim normalar mustahkamlab qo'yilgan.

Shuni alohida aytib o'tish lozimki, sudyalarning mustaqil va faqat qonunga bo'ysungan holda ish yuritishining konstitutsiya darajasida kafolatlanishining asosiy sabablaridan biri – sud hokimiyatiga boshqa hech qaysi organ vakolatiga taalluqli bo'lmasan huquq – odil sudlovni amalga oshirish huquqi berilgani bilan izohlanadi. Sud hokimiyatinining mustaqilligi quyidagilarda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijob etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

Sudyalar mustaqildir, faqat qonunga bo'ysunadi. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi.

Sudyalar senator, davlat hokimiyati vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emas.

Sudyalar siyosiy partiyalarning a'zosi bo'lishi, siyosiy harakatlarda ishtirok etishi, shuningdek, ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Sudya vakolat muddati tugagunga qadar sudyalik vazifasidan qonunda ko'rsatilgan asoslar bo'lqandagina ozod etilishi mumkin.

Prezidentimiz tomonidan 2016-yilning 21-oktabrida e'lon qilingan "Sud-huquq tizimini yanada isloq qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish choratadbirlari to'grisida"gi farmoni sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishiga doir konstitutsiyaviy normanining amalda to'la-to'kis ro'yobga chiqishiga zamin yaratdi. Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'grisida"gi farmon hamda ushbu farmon bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalihsidagi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi"da sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirishga oid qator chora-tadbirlar nazarda tutildi.

Sudlar mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishini ta'minlashda Harakatlar strategiyasida belgilanganidek, suda lavozimida bo'lishning ilk marotaba besh yillik, keyin o'n yillik muddatini va so'ng muddatsiz davrining belgilanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki suda lavozimida bo'lishning ushbu tartibi sudyadan zimmasiga yuklatilgan vazifani namunali va vijdonan bajarishni talab etishi bilan bir qatorda lavozimiga keyingi muddatga qayta saylanishi yoki tayinlanishi, o'z vazifalarini namunali ado etgach, keyinchalik o'n yilga va hatto muddatsiz davrga saylanishi yoki tayinlanishi uchun rag'batlantiruvchi qoida ham hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, adolatli sud hokimiyati bo'lgan joyda qonun va adolat tamoyillari ustuvor bo'ladi va bu maqsad yo'lida, eng avvalo, sud hokimiyati mustaqilligi, sud jarayoni ishtirokchilarining teng huquqlilagini ta'minlash, odil sudlovga erishish darajasini oshirish sohadagi islohotlarning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bobir RAHIMOV,
jinoyat ishlari bo'yicha Shayxontohur tuman sudi sudyasi

KAMBAG'ALLIK rivojlanayotgan mamlakatlar va hatto rivojlangan davlatlarda ham dolzarb muammo aylanib ulgurgan. Bu ijtimoiy-iqtisodiy muammo nafaqat oilalar hayotiga, balki jamiyatning umumiyo farovonligiga ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Kambag'allik bu – insonning asosiy ehtiyojarini qondira olmaslik holati. Hozirgi kunda davlatimizda kambag'allikni qisqartirish va shunday toifadagi oilalarni har tomonlama ijtimoiy himoya qilish tizimiga o'zgartirishlar kiritilmoqda.



Kambag'al oilalar uchun YETTI IMKONIYAT va MAS'ULIYAT

Jumladan, 2024-yil 11-sentabrda "Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi va uning ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmon bilan kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi va uning ijrosi ustidan nazoratga mas'ul bo'lgan bosh prokuror o'rinnbosari lavozimi kiritilishi, Bosh prokuraturaning

tashkiliy-shtat tuzilmasida 7 ta shtat birligidan iborat Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida qonunchilik ustidan nazorat boshqarmasi tashkil etilishi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalarida jami 28 ta shtat birligidan iborat Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida qonunchilik ustidan nazorat bo'lismalari tashkil etilishi belgilab berildi. Yangi kiritilayotgan bosh prokuror o'rinnbosari zimmasiga

har haftada kamida bitta tuman (shahar)ga borib, kambag'al oilalarni reyestrga kiritish va chiqarishning haqqoniyligini o'rganish, kambag'al oilalarga berilayotgan mablag'lar egasiga manzilli yetib borishini nazorat qilish, kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida zimmasiga yuklatilgan vazifalarni lozim darajada bajarmagan mas'ullarga nisbatan qonun ustuvorligi va jazo muqarrarligini ta'minlash, ijtimoiy himoya va kambag'allikni qisqartirish sohasida qabul qilinayotgan qonunlar talablari, Prezidentning farmon va qarorlarida belgilangan topshiriqlar ijrosini nazorat qilish kabi vazifalar yuklatilishi belgilandi.

Shuningdek, Prezidentning 2024-yil 23-sentabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish bora-sidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Farmon bilan 1-dekabrdan boshlab O'zbekistonda ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan "Kambag'al oilalar reyestri" shakllantiriladi. Reyestr "Mahalla yettiligi" tomonidan kambag'al oilalarning ijtimoiy sharoiti va kambag'allikka tushish sabablarini o'rganish natijasida shakllantiriladi. 2024-yilning qolgan davrida 500 ming, 2025-yilda 1 million nafar aholini kambag'allikdan chiqarish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining hamda barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi darajali vazifasi etib belgilandi.

Kambag'allikni qisqartirish sohasida erishilgan ijobjiy natijalar va to'plangan milliy tajriba hamda

ilg'or xalqaro amaliyot asosida har bir fuqaroni o'zi va farzandlari kelajagiga mas'uliyat bilan yondashishga undaydigan va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratishga qaratilgan "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi amalga oshirilishi va dasturni amalga oshirish bo'yicha respublika komissiyasi tashkil etilishi belgilab berildi. Ushbu dastur 2024-yil 1-noyabrdan boshlab "Kambag'al oilalar uchun yetta imkoniyat va mas'uliyat" tamoyili asosida barqaror bandlik va yuqori daromad topishga erishish, ta'lim olish va kasb-hunar o'rganish, kafolatlangan davlat tibbiy xizmatidan foydalanish, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish, yashash sharoitlarini yaxshilash, davlat tomonidan mahallalar infatu-zilmasini rivojlanadirish, davlat organlari xodimlari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish orqali amalga oshirilishi belgilandi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkin, kambag'al oilalarni ijtimoiy himoya qilish tizimining takomillashtirilishi, mavjud sotsial xizmatlarning sifatini oshirishga yordam beradi. Bu esa kambag'al oilalarning hayot darajasini yaxshilashga olib keladi. O'zbekistonda kambag'al oilalarni ijtimoiy himoya qilish tizimiga kiritilayotgan o'zgartirishlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiyotidagi muhim jihat bo'lib, aholining barcha qatlamlariga xizmat qiladi va davlatning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadi.

**Xumoyun SHARIPOV,
Yuristlar malakasini oshirish
markazi bosh mutaxassisi**

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA XORIJ TAJRIBASI



AYNI paytdagi globallashuv va integratsiya jarayonida korrupsiya dunyo davlatlari uchun eng global muammo bo'lib qolmoqda. Shu bois, unga qarshi kurashish masalasi barcha mamlakatlar qonunchiligidagi muhim o'rinn tutadi.

"Osiyo yo'llbarsi" deb nom olgan Xalqaro trancparens tashkiloti tahlillariga ko'ra, korrupsiya holatlari uchramaydigan Singapur korrupsiyaga qarshi kurashda ikkita asosiy qonunga tayanadi. Ya'ni, "Korrupsiyaning oldini olish to'g'risida"gi qonun (PCA) va "Korrupsiya, giyohvand moddalar savdosi va boshqa og'ir jinoyatlar (nafaqalarni musodara qilish) to'g'risida"gi qonun (CDSA). PCA ham davlat, ham xususiy sektorda pora bergen yoki oladigan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan keng qamrovga ega.

Korrupsiyaviy bitimni amalga oshirgan shaxs

yoki agent uchun eng yuqori jazo 100 ming AQSH dollaridan oshmaydigan jarima yoki 5 yildan ortiq bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki ikkalasi hamdir. Hukumat yoki har qanday davlat organi bilan bog'liq korrupsiya ishlari uchun esa eng yuqori jazo, shuningdek, 100 ming AQSH dollaridan ortiq bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki har ikkalasiga ham kuchaytirilishi mumkin.

Qozog'iston qonunchiligiga muvofiq, mansabdor shaxsning o'z vakolatlariga kiruvchi harakat (harakatsizlik)ni sodir etganligi uchun oldindan kelishuv bo'limgan holda sovg'a tariqasida ikki oylik hisoblash ko'rsatkichlaridan oshmaydigan miqdordagi mulk, mulkiy huquqlar yoki boshqacha mulkiy manfaatdorlikni qabul qilishi yoxud unga yuqoridagicha manfaatdorlikni taqdim etish jinoyat hisoblanmaydi. Shu bois, ma'muriy yoki

intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi. Korrupsiya jinoyatlarini sodir etgan shaxslarning davlat xizmatida va kvazidavlat korrupsiya jinoyatlarini sodir etgan shaxslarning davlat xizmatida hamda kvazidavlat sektori subyektlarida ishlashga umrbod taqiq qo'yilgan. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, sudyalar, pora beruvchilar va poraxo'rlik bilan shug'ullanuvchi vositachilarga nisbatan korrupsiyaga oid huquqburzaliklar uchun jazo choralar kuchaytirildi. Og'ir va o'ta og'ir korrupsiya jinoyatlari uchun sudlanganlar uchun shartli ravishda ozod qilish to'g'risida ariza berish imkoniyati istisno qilinadi. Poraxo'rlik uchun jazoni darhol eng kam xavfsizlik muassasasida o'tash taqiqlandi. Davlat organlari, tashkilotlari, kvazidavlat sektori subyektlari rahbarlarining bo'ysunuvchi xodimlarning korrupsiyaga yo'l qo'yanliklari uchun shaxsiy javobgarligi instituti joriy etildi.

Janubiy Koreya Jinoyat kodeksining 129-moddasi pora olishdan tashqari, pora so'rash va pora olishga va'da berish uchun ham javobgarlikni belgilaydi. E'tiborga molik jihat shundaki, mazkur davlat jinoyat qonunchiligi (Jinoyat kodeksining 133-modda) nafaqat pora berish yoki pora berishni va'da qilishni, balki shaxsning pora berish haqida o'z xohishini namoyon qilganligi holatini ham jazoga sazovor qilmish sifatida baholaydi.

Koreya Respublikasi jinoyat qonunchiliginining poraxo'rlik uchun javobgarlikni tartibga soluvchi normalari ko'plab xorijiy qonunlardan farqli o'laroq, u pora berganlik uchun jinoi javobgarlik yoki jazodan ozod qilishni nazarda tutmaydi.

**Yodgora ISKANDAROVA,
Yakkasaroy tuman 2-son
FHDY bo'limi 1-toifali inspektor**

8 ADLIYA FAXRIYLARI



HAR fasning o'z xislati bor deyishadi. Xuddi shunday, har kasbning ham o'z xosiyati, o'z xislati, har bir insonning o'ziga xos tabiat, o'zgacha fazilati borligi aniq. Dungoda kasblar ko'p. Kasbning katta-kichigi, yaxshi-yomoni bo'lmaydi. Har qanday kasbning qadr-qimmatini ko'tarish uni tanlagan, seungan insonga bog'liqligi ham bor gap. Bugun sizlarga tanishtirmoqchi bo'lgan qahramonlarimiz ham kasbini seungan, ardoqlagan, hayotda nimaga erishgan bo'lsa, barchasi kasbiga sodiqligi tufayli ekanini isbotlagan zamondoshlarimizdan.

ZIMMASIDAGI MAS'ULIYATNI UNUTMAGAN HUQUQSHUNOS

Ra'noxon Mama-rasulova 1954-yil Andijon shahrida tavallud topgan. O'rzuvalari bir olam qiz Toshkent davlat universitetida o'qib, huquqshunoslik kasbini egalladi. Oliy ta'lim olguniga qadar bir muddat Andijon shahar sug'urta inspeksiyasining xodimi hamda Andijon viloyat ichki ishlar boshqarmasida kotiba sifatida faoliyat yuritdi.

Huquqshunoslik faoliyatini 1976-yil Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida boshlagan. Qator yillar viloyat maishiy qurilish-ta'mirlash boshqarmasida huquqshunos lavozimida xizmat qildi. Andijon viloyat adliya boshqarmasining maslahatchisi lavozimidan so'ng Izboskan tuman sudining sudyasi, keyinchalik Oltinko'l tuman sudining raisi lavozimlarida samarali mehnat qildi. Mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida, shu jumladan, inson huquqlari va erkinliklarining kafolati sifatidaadolatli sud-huquq tizimini shakllantirish borasidagi islohotlarga o'zini daxldor deb bilgan Ra'noxon Aydinovna umuminsoniy qadriyatlar va umume'tirof etilgan huquq andozalariga asoslangan, shaklan va mohiyatan yangi qonunlar qabul qilinishiga o'z fikr va takliflari bilan hissa qo'shdi. Ish faoliyatida zimmasidagi mas'uliyatni, qonuniylik, demokratizm, odillik, insonparvarlik, jinoi qilmish uchun javobgarlikning muqarrarligi kabi odilona prinsiplar qo'yilganini aslo unutmadi.

Mehnat faoliyatining aksariyat qismi adliya va notariat sohasi bilan bog'liq. Andijon shahridagi davlat va xususiy notarial idoralarda salkam 15 yil xalqqa xizmat qildi.

Bugun ko'p yillik mehnatlarining rohatini ko'rib, yaqinlari mehri, shogirdlari ehtiromi qurshovida umrugazonlik qilayotgan Ra'noxon opani tabarruk 70 yosh bilan muborakbod etamiz.

Taqdir siflagan insonlar

HUJJATLARNI MUHOFAZA QILISH YO'LIDA 34 YIL



Karagodina Irina Aleksandrova 1954-yil 7-noyabr sanasida Termiz shahrida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetining tarix fakultetini tamomlagan. Mutaxassisligi tarixchi. Mehnat faoliyatini 1978-yil 2-avgustda O'zbekiston Milliy arxivsi (O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining "Hujjatlarni muhofaza qilishni ta'minlash" bo'limida fond saqlovchi lavozimida boshlagan. O'tgan yillar davomida 2-toifali arxivchi, bosh arxivchi, bo'lim mudiri lavozimlarigacha bo'lgan bosqichlarni bosib o'tdi. Har bir hujjatni ko'z qorachig'idek asrashga odatlangan Irina Aleksandrova qaysi lavozimda ishlamasin, ishga vijdanan yondashishni, o'ziga topshirilgan har qanday topshiriqni sidqidildan bajarishni o'z burchi deb hisoblagani uchun jamoada yuksak hurmat va e'tiborga sazovor bo'ldi.

Mehnat qilgan elda aziz, degan maqol bekorga aytilmagan. Irina Karagodinaning ko'p yillik halol mehnatlari "O'zarxiv" ma'muriyati tomonidan bir necha bor Faxriy yorliq va Tashakkurnomalar hamda pul muhofoti bilan munosib taqdirlangan.

Umrining 34 yilini hujjatlarni muhofaza qilishdek tarixiy jarayonlarga bag'ishlagan Irina Aleksandrova hamisha hamkasblari, shogirdlari mehridan, suhbatidan bahramand. Inson uchun bu ham ajib saodatdir.

Tabarruk yoshingiz qutlug' bo'lsin, Irina Aleksandrova!

PROKURATURA, SUD, ADLIYA TIZIMI FIDOYISI



G'aybullo Rahimov 1949-yil Buxoro shahrida tavallud topgan. Huquqshunos bo'lishni chin dildan maqsad qilgani sababli oliy o'quv dargohiga kirguniga qadar ham shu sohaning nonini yedi. To'rt yil Buxoro tuman sudining kotibi bo'lib ishladi. Toshkent davlat universitetining huquqshunoslik fakultetini tugatgach, Buxoro viloyat prokururasining tergov bo'limi prokurori lavozimida faoliyat ko'rsatdi. Ikki yil harbiy xizmatni o'tgach, sevimli jamoasiga qaytib, tergov bo'limida ishni davom ettirdi. Viloyat prokururasining tergov bo'limi prokurorligidan Peshku tuman prokurori lavozimiga tayinlandi. Prokuratura organlarida ishlab, tajriba orttirdi.

G'aybullo Abdullayevich sud organlarida ham samarali mehnat qildi. 1979-yildan boshlab bor bilim va tajribasini Buxoro viloyat sudining sudlov hay'ati a'zosi sifatida odil sudlovnii amalga oshirish yo'liga bag'ishladi. Buxoro viloyat sudi raisining o'rinnbosari sifatidagi mehnat faoliyati ancha murakkab ya'ni, sobiq ittifoq davrining bosimini va turli ko'rsatmalarini bajarishga majburlik hamda mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki mashaqqatli va mas'uliyatlidavrlarini o'z ichiga olgan. G'. Rahimov Farg'onan

viloyat sudining raisi lavozimida faoliyat yuritgan yillarda qonun ustuvorligini ta'minlashni, adolatli qarorlar qabul qilishni asosiy mezonga aylantirdi. Zero, suda u yoki bu jinoi xatti-harakat yoxud nizoli ishga huquqiy baho berar ekan, qanchadan-qancha omillarni, sabab va oqibatlarni tosh-taroziga solib ko'radi, tahlil qiladi, shundan so'ngina hukm yoki qaror e'lon qiladi.

U suda jamiyat hayotida qanday sohalar bo'lsa, barchasini bilishi shartligini yodda tutdi. Chunki sud jarayonida turli sohalarga oid jinoylarni ko'rib chiqayotganda sudlanuvchilar bilan savol-javoblarda yetarli bilim va darajaga ega bo'lish talab etilishi va muhimligini unutmadi. Sudyalar qasamyodida ta'kidlanganidek, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni halol va vijdonan bajarishga, odil sudlovnii faqat qonunga bo'ysungan holda amalga oshirishga, sudyalik burchi va vijdoni buyurganidek beg'araz, xolis va adolatli bo'lishga harakat qildi.

G'aybullo Abdullayevichning qat'i-yati, talabchanligi, bilim va tajribasi inobatga olinib, yuksak ishonch bilan Oliy sud raisining o'rinnbosari lavozimiga tayinlandi. Sud-huquq tizimidagi islohotlarni amalga oshirish yo'lida xizmat qildi.

Adolat yo'lida qariyb 50 yil halol mehnat qilgan G'. Rahimov qator yillar adliya vazirining birinchi o'rinnbosari vazifasida faoliyat yuritdi. Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va manfaatlarini himoya qilish yo'lida bor bilimi va tajribasini sarfladi, mustaqil davlatda yangi xalqchil qonunlarni ishlab chiqishning faol ishtirokchisi bo'ldi.

Prokuratura, sud va adliya tizimlarida uzoq yillar samarali mehnat qilgan, yuksak bilim va salohiyat egasi bo'lgan qahramonimiz davlat va jamiyat hayotida munosib iz goldirdi. Tabarruk yoshingiz, yaxshi nom va cheksiz ehtiromlar muborak bo'lsin, aziz zamondoshim!

Marusa HOSIOVA,
"Inson va qonun" muxbirini

E'ONGLAR

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2024-yil 30-oktabrdagi 40/2024-sen yig'ilish qarori va Toshkent viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 30-oktabrdagi 306-um-sen buyrug'iga asosan boshqarma tomonidan Zangiota tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rustiyev Rustam Rashidovichga 2020-yil 22-aprelda berilgan TS 0060 raqamli xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 2024-yil 4-noyabrdan 1 oy muddatga to'xtatildi.

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2024-yil 30-oktabrdagi 41/2024-sen yig'ilish qarori va Toshkent viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 30-oktabrdagi 305-um-sen buyrug'iga asosan boshqarma tomonidan O'rtaçkirchiq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamirova Muxayyoxon Urazaliyevnaga 2020-yil 27-aprelda berilgan TS 0085 raqamli xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 2024-yil 1-noyabrdan 1 oy muddatga to'xtatildi.

Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan advokat Dulanov Alisher Kenjayevichga 2023-yil 10-oktabrda berilgan L-70661527-sen reyestraqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya hamda advokatlik maqomi tugatildi.

INSON va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yarvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot agentligiga
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan

ISSN 2010-7897
9772010789008

Bosh
muharrir
Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Akbar Musayev
Xayotjon Kluchev
Sherzod Abdullayev
Shoxidaxon Yuldashev
Yorbek Iskandarov

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va mualifiga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Marusa Hosilova
Sahifalovchi-dizaynerlar
Jamshid G'furrov
Ma'ruf Abdug'aniyev

Nashr indeksi: 137
"Inson va qonun" gazetasini hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnalni birlashgan tahririyati kompyuter basasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma tabod hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasi da chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1-a-uy
Tiraji – 3 760
Buyurtma – 3840
Topshirish vaqt – 19:00
Topshirildi – 19:00

MANZILIMIZ:
100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.
Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65
Bahozi kelishilgan narxida
1 2 3 4 5